



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SEKTORLAR FAOLIYATINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Ochildiyev Asadbek Faxriddin o'g'li
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
"Tashkiliy-shtab faoliyati" kafedrasи
3-o'quv o'quv kursi 329-guruh kursanti

Annotatsiya: Maqolada respublikamiz hududlaridagi aholi o'rtasidagi mavjud ishsizliklar, sodir etilayotgan jinoyatlar, shuningdek mavjud muammolarni bartaraf etish uchun tashkil etilgan sektorlar faoliyati, sektorlar faoliyatida bugungi kunda yoshlarning, ishsiz fuqarolarning va qarovchisi mavjud bo'lamgan shaxslarning muammolari, ularning yechimi borasida olib borilayotgan ishlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zлari: Sektor tushunchasi, sektorlarning maqsad va vazifalari, sektorlar bo'linish tizimi, "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari", sektorlarning ob'yektlari, sektorlardagi vaziyatlar tahlili, sektorlarda jinoyatchilikning oldini olish, sektorlarni baholash, sektorlarni rivojlantirish, sektorlardagi muammolar, fuqarolarning bandligini taminlash, kambag'allikni kamaytirish,

Abstract: Th article talks about existing unemployment among the population in the regions of our republic , the crimes committed, as well as the activities of sectors established to eliminate existing problems. In the activity of the sectors, it is considered what kind of work is being carried out today within the framework of solving the problems of young people, unemployed citizens and persons without a caregiver.

Key words: Concept of sector, goals in tasks of sectors, division system of sectors, "youth register", "women's register", objects of sectors, analysis of situations in sectors. prevention of crime in sectors, assessment of sectors, development of sectors, problems in sectors, ensuring employment of citizens, reducing poverty

Maqolada respublikamiz hududlaridagi aholi o'rtasidagi mavjud ishsizliklar, sodir etilayotgan jinoyatlar shuningdek mavjud muammolarni bartaraf etish uchun tashkil etilgan sektorlar faoliyati haqida so'z boradi. Sektorlar ko'plab xususiy korxona va tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlik ishlarini olib boradi . Sektor rahbarlari hududdagi ishsiz fuqarolarni iloji boricha ularning bandligini taminlash



borasidagi harakatlarni amalga oshirishi, ularning murojatlarini qabul qilishi va mavjud muammolariga yechim topishi bilan bog'liq faoliyatni olib boradi. Bugungi kunda davlatimiz raxbarining tashabbusi bilan ochiq muloqatni yo'lga qo'yish, dolzarb muammolarni aniqlash, davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan murojatlarning ko'rib chiqilishini taminlash orqali axoli roziligidiga erishmoqdamiz. Sektor raxbarlari tomonidan har oyda kamida 2 martadan aholi o'rtaida sayyor qabullar o'tkazilishi, ochiq muloqatlar tashkil etilishi lozim. Bu o'z navbatida aholi bilan ochiq muloqat qilish ko'payganligini anglatadi, statistik malumotlarga qaraydigan bo'lsak ushbu harakatlar bir barobarga ortganini ko'rishimiz mumkin. Albatda bu islohatlarning tub zaminida axolini rozi qilish va ularga farovon turmushi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish turadi. Belgilangan islohatlarni hayotga tadbiq etishda Muxtaram Prezidentimizning farmon va qarorlari bilan xar bir mahallada xokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi hamda xotin-qizlar faollarining faoliyati tashkil etilganligi sektor raxbarlari uchun juda kata imkoniyatlar yaratdi. Endilikda yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib yil davomida aholiga yaqindan yordam ko'rsatish, ularning muammolarini bartaraf etish va bandligini taminlash maqsadida 3-sektorlarga biriktirilgan ishchi guruhlar bir jamoa bo'lib manzilli ishlarni amalga oshiryapdi.

Sektor tushunchasi; sektorlar - ichki ishlar organlari tizimida faoliyat yuritadigan bo'limmalar hisoblanadi. Bu tizimda sektorlar, maqsad va vazifalari bilan ajralib turadi. Bugungi kunda sektorlar faoliyatining ahamiyati juda katta hisoblanadi. Tashkil etilgan sektorlarga asosiy vazifasi etib har bir sohasidagi faoliyatni tashkil etish, rivojlantirish va ko'paytirish qilib belgilangan. Ularning asosiy maqsadi - mamlakatning iqtisodiyotini mustahkamlash, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, sanoat, tarixiy yodgorliklarni saqlash va rivojlantirish, shu bilan birga inson manfaatlarini hamda aholi bandligini taminlashdan iboratdir.

Respublikamizda tashkil etilgan 4 ta sektorlardan biri yani Ichki ishlar organlariga biriktirilgan 3-sektordagi mavjud vaziyat va unda olib borilayotgan ishlar haqida birmuncha malumotlar bilan tanishib chiqamiz. Sektorlar bo'linishiga ko'ra 4ga yani;

1. Hokimyat huzuridagi sektorlar
2. Prokuratura huzuridagi sektorlar
3. Ichki ishlar organlari huzuridagi sektorlar
4. Soliq qo'mitasi huzuridagi sektorlar o'z faoliyatini biriktirilgan hududlardagi fuqarolarning muammolari bilan ishslash , hududdagi jinoyatlarning oldini olish va mamuriy huquqbazarliklar sodir etilishiga yo'l qo'maslikdan iborat .



Respublika hududida sektorlar tashkil etilib ularga fuqarolar xavfsozligi , huquqlari va qonuniy manfaatlarini taminlash asosiy vazifa qilib belgilangan . Shu asnoda bugungi kunga kelib hududdagi ishsiz yurgan fuqarolarni ish bilan taminlash kichik beznis bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan fuqarolarga keng miqyosda sektor raxbarlari shuningdek hamkor tashkilotlar bilan birgalikda qo'llab kelinmoqda. Barchaga malumki o'tgan qisqa davr mobaynida sektorlarga ma'sul rahbarlar tomonidan aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash , ularni qiyab kelayotgan muammolarning yechimini topish va ijobiy hal etish bo'yicha salmoqli ishlar amalgalashirilmoqda. Sektoralarga qo'yilayotgan vazifalar ko'lami kundan-kunga ortayotgani esa, ularning xalq manfaati yo'lidagi faoliyatini yangi bosqichga ko'tarishni taqozo qilmoqda. Ushbu maqsadda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sektorlar faoliyati bilan bog'liq qo'yilgan vazifalar ijrosi uchun ma'sul bo'lgan sektor rahbarining yordamchisi lavozimi joriy etildi. Hududlardagi tegishli rahbarlar tomonidan o'tkazilgan tadbirlarda aholini qiyayotgan muammolar bilan ishslash tizimi va hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini takomillashtirish masalalari muhokama qilinadi. Sektorlarda aholini turli toifalarga bo'lib ularning muammolariga yechim topilmoqda, bu toifaga quyidagilar kiradi yani ayollar, yoshlar va kambag'allik darajasi mavjud bo'lgan fuqarolar toifasidir. Sektorlarda ushbu kambag'alligi mavjud fuqarolarning ham ro'yxati hisoblab boriladi. Ushbu ro'yxat "Temir daftar" nomi bilan yuritiladi. Unda hududdagi kam taminlanganlarga va iqtisodiy tomonlama kam va hech qanday doimiy ishslash joyi mavjud bo'lmagan fuqarolar ro'yxatda turadi. Bu toifadagi fuqarolarni kamaytirish uchun sektor raxbarlari tomonidan ularga katta imtiyozlar yaratilib berildi.

Sektorlarda "Ayollar daftari"ning yuritilishi ayollarimizning o'z sohalarida faoliyatini rivojlantirishga hamda qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Bu sektor ayollarimizning malakali mutaxassislar bilan tayyorlanishi, ularga texnik va ilmiy ko'maklashishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, ularning ijtimoiy faolligi va o'zaro hamkorliklarini kuchayishida katta ahamiyat kasb etadi.

Hududda "Yoshlar daftari"ning yuritilishi esa yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning rivojlanishini ta'minlash va texnik, malakali mutaxassislar yetishtirish bilan shug'ullanadi. Ushbu sektor yoshlarning o'z sohalarida rivojlanishi va ijtimoiy faolligiga qat'iy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek muammolarni bartaraf etish uchun yaratilgan ushbu "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" sektorlardagi vaziyatni yaxshilashga juda katta hissa qo'shadi desak adashmagan bo'lamiz. Sektorlar rahbarlari tomonidan tashkil etilayotgan tadbirlar va ishlar natijalarini doimiy tarizda



tahlilini ham birdek olib borish zarur hisoblanadi. Sektorlardagi vaziyatlarni tahlil qilish, ularning faoliyatini o'rganish, rivojlantirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan. Bu tahlil asosida sektorlar o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, xizmatlarni sifatli va samarali ko'rsatish imkoniyatini yaratish, malakali kadrlar tayyorlash, shuningdek, sanoat, kasb-hunar sohalaridagi muammolarni bartaraf etish maqsadga muvofiq amalga oshiriladi. Sektorlarda nafaqat sektor rahbarlari balki yuqori turuvchi organlar rahbarlari ham ushbu hududda aholi bandligini taminlashga katta etibor qaratishayapti , chunki, aholi o'rtasida birinchi navbatda bandlik taminlansa jinoyat sodir etilishi mumkin bo'lган bir omil bartaraf etilgan bo'ladi. Fuqarolarning bandligini taminlash jarayonida ish joylarining sifatini yaxshilash uchun ishga qabul qilish davomidagiadolatsizlik va korrupsiyaning oldini olish kerak. Respublikamizda fuqarolarning bandligini taminlash davlatning asosiy vazifalaridan biri ekanligini ham malumot sifatida aytib o'tish maqsadga muvofiq. Hozirda sektorlarda istiqomat qiluvchi fuqarolar orasida kambag'allikni kamaytirish uchun, xususiy korxona, muassasa va tashkilotlarda qo'shimcha ishchi o'rinalarini yaratish, ishchi kuchini oshirish, innovatsiyalarni rivojlantirish va iqtisodiy rivojlanish uchun qo'shimcha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Nafaqat sektorlarda balki butun respublika hududida kambag'allikni kamaytirish uchun sifatli ta'lim tizimini, yaxshi kadrlarni va yuqori tajribali mutaxassislarni tayyorlab chiqarishimiz kerak. Aholi o'rtasida kambag'allikni kamaytirish uchun sektorlar Davlat hokimiyat va ichki ishlar organlarining yo'l-yo'riqlarida ular bilan maqsadli hamkorlik qilishi zarur. Respublika hududida sektorlar tashkil etilib qo'yilmasdan ularni o'zining tizimi bo'yicha va alohida nazorat organlari tomonidan tekshirib borilishi, ularning ish jarayonlari baholanishi borasida ham ko'plab ishlar amalga oshirildi. Sektorlarni baholash bu ularning faoliyati va rivojlanish darajasini aniqlash uchun amaliy jarayon hisoblanadi. Baholash jarayonida sektorlarning tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlari yig'indisiga e'tibor beriladi. Sektorlarning baholash natijalari asosida sektorlarning muammolari aniqlanishi va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari bo'yicha bir nechta reja asosida harakatlar amalga oshirilishi belgilanadi. Sektorlar faoliyatining bugungi kundagi ahamiyati, ishsiz yoshlarni ish bilan bog'liq sohalarda qamrab olgan holda, ularning jinoyat sodir etishlarining oldini olish va jamiyat xavfsizligi ta'minlashda o'z vazifasini bajarishi bilan bog'liqdir. Ishsiz yoshlar, kasbiy bilimlarni oshirish orqali ishga joylashishi, hayot standartlariga moslashishi va ommaviy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu esa jamiyatdagi huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lган yoshlarning kamayishiga olib keladi. Ushbu sodir etilishi mumkin bo'lган



jinoyatchilikning oldini olish uchun sektorlar ham ko'plab sohaviy xizmatlar bilan hamkorlikni amalga oshirishi zarur hisoblanadi. Sektorlar hamkorligi ichki ishlar organlari tizimida bugungi kunda alohida ahamiyatli bir mavzu sifatida ko'rildi. Sektorlar va sohaviy xizmatlar orasidagi **hamkorlik** - mamlakatimizning iqtisodiyoti hamda aholi muammolarini bartaraf etish va sektorlar salohiyatining barqaror rivojlanishida muhim o'rinni egallaydi. Ichki ishlar organlari tizimi, davlatimiz faoliyatning asosiy mohiyatini belgilaydi. Ushbu tizim sohalardagi tashkiliy tuzilishlarni, biznes sub'ektlarining faoliyatini, ularning hamkorlik olib borishini va o'zaro aloqalarni birlashtiradi. Sektorlar esa, iqtisodiyotimizning alohida sohalarga bo'lingan bir qismini ifodalaydi. Sektorlar hamkorligi, ichki ishlar organlari tizimida ahamiyatli bir muammoga aylangan. Ushbu hamkorlik, sektorlarning o'zaro bog'liqligini, ularning bir-biriga yordam berishini va rivojlanishini ta'minlaydi. Misol uchun, yirik sanoatni rivojlantirishga yo'naltirilgan moliyaviy resurslar, energiya va kadrlar, ichki ishlar organlari tizimida bo'lган sektorlar orasida samarali tarzda ishlab chiqarishni ta'minlasachi, qanday xolat kuzatilga bo'lardi?

Har bir sektorlar rivojlanishi bilan bir qatorda bu yerda tadbirkorlar tomonidan ham ko'plab xususiy obyektlar qurulmoqda. Sektor rahbarlari tadbirkorlar bilan kelishgan holda hududdagi bo'sh yurgan ishsiz yoshlar, ayollarning bandligini taminlashini ham ko'ramiz. Yuqorida aytib o'tganimizdek sektorlar ham yilda, oyda va malum chorakda ish faoliyati baholanadi. Sektorlarni baholashda ularning natijalariga ko'ra; tuman, shahar sektorlari o'rtasida respublika darajasida – “Eng namunali sektor” hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri daajarasida – “Eng tashabbuskor sektor” nominatsiyalari bo'yicha g'oliblar aniqlanadi va rag'batlantirilishi belgilab o'tilgan. Baholash natijalari bo'yicha respublika darajasida - “Eng namunali sektor” nominatsiyasida g'olib bo'lган sektorlar quyidagi miqdorda rag'batlantiriladi:

- 1-o'rin uchun - BHMning 500 baravari miqdorida;
- 2-o'rin uchun - BHMning 400 baravari miqdorida;
- 3-o'rin uchun - BHMning 300 baravari miqdorida pul mablag'i.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri darajasida - “Eng tashabbuskor sektor” nominatsiyasida g'olib bo'lган sektorlar quyidagi miqdorda rag'batlantiriladi:

- 1-o'rin uchun - BHMning 200 baravari miqdorida;
- 2-o'rin uchun - BHMning 150 baravari miqdorida;
- 3-o'rin uchun - BHMning 100 baravari miqdorida pul mablag'i.



Sektorlarni rivojlantirish bu davlatning eng quyi qismidan boshlashdir, bu harakat mamlakat iqtisodiyotining kuchayishiga asosiy ta'sir qiladigan jarayondir. Rivojlantirish jarayonida investitsiyalar, innovatsiyalar va xalqaro aloqalarda muhim o'rinni egallaydi. Sektorlarni rivojlantirish uchun hududga qo'shimcha kapital jalb etish, hududda ahamiyatga molik obyektlarni qurish, hududdagi mavjud texnologiyalarni takomillashtirish va malakali kadrlarni jalb qilish muhimdir. Shuni takidlashimiz lozimki sektorlar oldiga hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini taminlashdek muhim vazifa qo'yilmoqda. Bu esa sektor rahbarlaridan iqtisodiy va moliyaviy sohada yetarlicha bilimlarga ega bo'lishlarini talab qiladi. Buning uchun hozirda shahar-tuman 3-sektor rahbarlari va sektor kotiblarini qayta o'qitish, bu boradagi bilimlarni yanada mustahkamlah maqsadida ushbu yo'nalishda faoliyat yurituvchi viloyatdagi mutasaddi idoralar ma'sullari ishtirokida ko'plab seminarlar tashkil etilayapti.

Adabiyotlar:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- "Xududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4102-son
- "Xududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni taminlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3182-son
- "Xududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini samaradorligini baholash tartibi to'g'risida"gi nizom VM-536-son